

Konstruktorli O`Yinlar O`Yinlar Orqali Maktabgacha Yoshdagi Bolalarda Mantiq Va Muamoli Vaziyatda Fikrlash Ko`Nikmalarini Rivojlantirish

Ashurova Pokiza

Samarqand davlat Pedagogika institute Pedagogik fakulteti, Maktabgacha ta`lim fakulteti

KIRISH

Maktabgacha ta`lim bolaning intel ektual va shaxsiy rivojlanishida eng muhim davrlardan biridir. Bu yosh davrda bola atrof muhitni o`rganadi, narsalar va hodisalar o`rtasidagi bog`lanishlarni tushunishga urinadi, mustaqil qaror rabul qilishga qiziqadi. Shu bois tarbiyachilar va ota-onalar bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish uchun maxsus vositalardan biri bu-konstruktorli o`yinlardir.

ASOSIY QISIM

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta`lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risida" gi farmoni hamda "O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to`g`risida" gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratiladi. Ushbu tizim oldiga maktabgacha ta`lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta`lim mu`assasalari davlat va nodavlat tarmog`ini kengaytirish hamda moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta`minlash, maktabgacha ta`lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta`lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta`lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma`naviy estetik, jismoniy rivojlanish, ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo`yildi.

Maktabgacha ta`lim bolaning intellektual va shaxsiy rivojlanishida eng muhim davrlardan biridir. Bu yosh davrda bola atrof muhitni o`rganadi, narsalar va hodisalar o`rtasidagi bog`lanishlarni tushunishga urinadi, mustaqil qaror rabul qilishga qiziqadi. Shu bois tarbiyachilar va ota-onalar bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish uchun maxsus vositalardan biri bu-konstruktorli o`yinlardir.

Konstruktor o'yinlari maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish ko`nikmalari va ijodkorlikni rivojlantiradi, chunki ular bolalarni g'oyalarni o'ylab topish, qismlarni birlashtirish va natijalarni baholashga undaydi. Ushbu o'yinlar bolalarda fazoviy tasavvurni shakllantirib, muhandislik va dizayn asoslarini o'rgatadi, bu esa ularning o'yin orqali o'z-o'zini rivojlantirishiga yordam beradi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish

• Sabab-oqibatni tushunish:

Bolalar qismlarni qanday birlashtirish o'z-o'zidan qanday natijaga olib kelishini ko'rib, sabab-oqibat munosabatlarini o'rganadilar.

- **Tizimli o'ylash:**

Konstruktor o'yinlari bolalarni biror narsani qurish uchun qadam-baqadam rejalashtirishga va turli qismlarni bir-biriga mos kelishini ta'minlashga o'rgatadi.

- **Mantiqiy asoslarni shakllantirish:**

O'yin davomida bolalar sodda geometrik shakllar, simmetriya va parallelizmni tushunishni boshlaydilar.

Muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish

- **O'z-o'zini ta'mirlash:**

Qandaydir narsa ishlamay qolsa, bolalar muammoni aniqlashga va uni hal qilish uchun boshqa yechim izlashga majbur bo'lishadi.

- **Tashabbuskorlik:**

Konstruktor o'yinlari bolalarni o'z g'oyalarini amalga oshirishga va o'zlariga yoqqan narsalarni yaratishga undaydi, bu esa ularni tashabbuskor bo'lishga o'rgatadi.

- **Ijodiy fikrlash:**

Bolalar o'zlarining ixtirolarini yaratish va qiyin vazifalarni hal qilish uchun nostandart yechimlarni topish orqali ijodiy fikrlashni rivojlantiradilar.

Konstruktor o'yinlarining foydalari

- **Ko'z va qo'l koordinatsiyasi:**

Har bir qismni to'g'ri o'rniga qo'yish ko'z va qo'l koordinatsiyasini yaxshilaydi.

- **Sabr-toqat va chidamlilik:**

Biror narsani qurishda muvaffaqiyatga erishish uchun vaqt va sa'y-harakat talab etiladi, bu bolalarni sabrli va chidamli bo'lishga o'rgatadi.

- **Jamoaviy ish:**

Ba'zi konstruktor o'yinlari birgalikda o'ynaladi, bu esa bolalarda hamkorlik, muloqot va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradi

Konstruktorli o'yinlar yordamida bola sanashni, shakllarni farqlashni o'rganadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar mashg'ulotlardagi asosiy vazifalardan biri –bola miyasida buyum va hodisalar haqidagi axbarotni tasavvur ettirish. Masalan, rasm chizish, turli o'yinlar, kubiklardan biror bir narsa yasash orqali bola ana shu axbarotni tafakkurida rivojlantiradi. Ushbu tafakkur turi boshqa tafakkur turlariga asosan bo'lib, so'z boyligi, mantiqiy tafakkurning shakllanishi, kelajakdagi maktab darslarini a'lo darajada o'zlashtirishida ko'maklashadi. Bola o'z tabiatlariga ko'ra haddan tashqari qiziquvchan bo'ladi. Ular hamma narsani bilishi juda zarur; ta'mini ta'tib ko'rishi, ushlab ko'rishi, tushunarsiz va yangi bo'lgan narsalarga o'z tushutirishlarini o'ylab topishi, tajriba o'tkazib ko'rishi kerak. Har bir ota-ona o'z farzandiga uni o'rab turgan olamni tanishida yordam berishi zarur. Maktabgacha yoshdagi bolaning tafakkuri fuda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi ularda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, nutqining yaxshi no'sgan bo'lishi va bog'cha yoshidagi bolalarning juda ko'p erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir.

Buyumlarni guruhlashni va o'lchamlarni taqqoslashni o'rganadi.

Masalan, turli kattalikdagi kublarni ajratish orqali katta-kichik tushunchasi shakllanadi, detallarni birlashtirish jarayonida esa 'ko'p-kam,, tushunchalari shakllanadi.

MUAMMOLI VAZIYATDA FIKRLASH

Konstruktir bilan o'ynagan bola ko'pincha muammoli vaziyatga duch keladi.

Masalan, qurilgan uy qulab tushmasligi uchun qaysi detalni qanday joylashtirish

Kerakligi haqida o'ylaydi. Bu esa uning mustaqil qaror qabul qilishini va mantiqiy

fikrlashni kuchaytiradi. Bolaning rivojlanishida maktabgacha bo'lgan davri juda muhim o'rin tutadi. Bu davrda bolaning jismoniy, aqliy, psixalogig salomatligi shakllanadi va aqliy rivojlanish qobiliyatlari takomillashadi. Bolani kelajakda omadli, aqilli hamda istedodli bo'lishini istagan ota-ona uning rivojlanishida aynan shu davrdan boshlab ahamiyat kasb etmog'i lozim.

IJODKORLIK VA TASSAVUR.

Bir xil detallar asosida turli xil inshootlar qurish bolada ijodiy fikrlashni oshiradi.

Masalan, oddiy kublardan bir bola uy yasasa boshqa bola mashina yoki hayvon yasaydi. Bu jarayon tasavvurni kengaytiradi va fantaziyani boyitadi.

JAMOADA ISHLASH KO'NIKMASI.

Konstruktorli o'yinlarning yana bir afzalligi bolalarni jamoaviy ishlashga o'rgatishidir.

Guruh bo'lib shahar quramiz degan o'yinlar o'ynaydi va bir biri bilan hamkorlik qiladi

AMALIY MASHG'ULOTLAR MISOLI.

Uy-qurqimiz –bola geometrik shakllardan foydalanib bino quradi.

Transport shaharimiz-bola guruh bo'lib yo'llar, ko'priklar va mashinalar qurib, ularni bir

tizim sifatida ishlatishadi.

PISIXALAGIK-PEDAGOGIK ASOSLAR

Konstruktorli o'yinlar bolaning tafakkurini mantiqiy va ijodiy qirrlari bilan uyg'un rivojlantiradi.

O'zbekiston Respublikasida so'ngi yillarda maktabgacha ta'lim sohasida islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat dasrurlarida rivojlantiruvchi o'yinlar, konstruktorli o'yinlardan foydalanish ta'lim

Jarayoninig samaradorligini oshiradi.

XULOSA

Konstruktorli o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik mantiqni rivojlantirish, muomoli

vaziyatlarda yechim topish, ijodkorlikni kuchaytirish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda

samarali vositadir. Shu bois ta'lim-tarbiya jarayonida konstruktorli o'yinlardan keng foydalanish nafaqat

bolalarning bilim va ko'nikmalarini, balki ularning mustaqilligi va mas'uliyatini ham oshiradi. Muhtaram yurboshimiz SH.M. Mirziyoyev tomonidan ko'plab shart sharoitlar yaratilib berilyapti ayniqsa maktabgacha ta'limga katta e'tabor qaratilgan biz yoshlar undan unimli foydalanishimiz lozim,

kelajakda o'z yurtimizga foydasi tegadigan ota-onalarimizga rahmat olib keladigan o'z ishining yetuk mutaxasisi bo'lishimiz shart va lozimdir. Men albatta harakat qilaman o'z sohamning yetuk mutaxasisi bo'lishimga va yurtimizga foydasi tegadigan kadr bo'lishga jon jahtim bilan harakat qilaman va hamma havas qiladigan o'z kasbini sevadigan mahoratli pedagog bo'lishga

FOYDALANADIGAN ADABIYAOTLAR

1. Vygotskiy L.S. "psixologiya razvitiya rebenka". -Moskva 1984.

2. Piaget J. "Rebenok I realnost".-Moskva,1994.
3. Raximova M. "Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi o'yinlar metodikasi"-Toshkent,2020.
4. Ochildiyeva M. "Bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda o'yin texnologiyalari".-Ilmiy maqola,2020.